

IJTIMOIY SOHAGA OID OMONIM TERMINLARNING IZOHLI LUG‘ATDAGI TALQINI

Mamatkulova Roxila
TerDU 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada omonimiya va polisemiya hodisalarining o‘ziga xos xususiyatlari va farqli tomonlari yoritib o‘tilgan. Sohaviy terminologiyasida omonim terminlar to‘plangan va tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: omonimiya, polisemiya, transterminlashuv, ma’no ko‘chishi, terminolog olimlar.

Har qanday til jamiyatda mavjud ekan, u doim taraqqiyotda bo‘ladi. Chunki u davr talabi bilan jamiyatga moslashib, undagi o‘zgarish va yangilanishlarni o‘zida mujassamlashtirib boradi. Bu, albatta, shu tilda so‘zlashuvchilarning tildan foydalanish ko‘nikmasiga bog‘liq holda amalga oshadi. Tildagi o‘zgarishlar va yangilanishlar individlar nutqida aks etib, turli vaziyat, holatlarga bog‘liq ravishda shaxs nutqida voqelanadi. Ijtimoiy hayotda ma’lum bir tilning mavqeyi yo‘qolib borar ekan, demakki, shu til bilan birga til egalarining madaniy boyliklari, milliy o‘ziga xosliklari, asosiysi esa faqat ushbu tilgagina xos bo‘lgan nozik ma’nolarni ifodalovchi leksik birliklar yo‘qlikka yuz tutishi shubhasizdir. Bunday oqibatlariga olib keluvchi sabablar bir nechta. Jumladan, mazkur tilda so‘zlashuvchilarning kamayib borishi, rivojlangan tillarning mazkur tildan ustunlik qilishi, mazkur tilning ilmiy tadqiqi va rivojlantirish mexanizmi ishlab chiqilmagani, jamiyat hayotida qiymatining pasayishi kabilar tillarning o‘lik tilga aylanishiga olib keluvchi zamonaviy omillardir. E’tibor va himoyada bo‘lgan til esa, jamiyat rivojiga bog‘liq holda rivojlanib, boyib, yuksalib boraveradi.

Terminologiyada ham sinonimiya, polisemiya, polifunksionallik va omonimiya hodisalari kuzatiladi. Ayrim terminlar bir necha sohada yuz beradigan va amal qiladigan bir xil hodisalarni nomlaydi. Hodisalar birdan ortiq maxsus sohalar uchun universal bo‘lganligi sababli ularni ifodalovchi terminlar ham universallik tabiati bilan ajralib turadi.

Ilmiy manbalarda qayd etilganidek, omonimlar shaklan teng, ya’ni talaffuzi va yozilishi bir xil bo‘lgan alohida leksik birliklar sifatida tan olinadi. Masalan: kul (fe’l so‘z turkumiga oid bo‘lib, kulmoq) – kul (ot so‘z turkumiga oid bo‘lib, o‘t yoqilgandan keyin qoladigan qoldiq); tort (fe’l, biron narsani tortish harakati) tort (ot, shirinlik) va hokazo.

Tilda so‘zlar shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra omonim, sinonim, antonim va paronim so‘zlarga bo‘linishi nutqning chiroyli, ta’sirchan ifodalanishi va leksemalardagi nozik ma’no qirralarini farqlashga yordam beradi. Shakli bir xil, ma’nosi har xil bo‘lgan

omonim soʻzlar shakli va qoʻllanilish uslubi жиҳатдан алоҳида оʻringa ega soʻzlardir. Omonimlarning yuzaga kelish sabab va omillari ham har xil:

1) tilda azaldan mavjud boʻlgan ayrim soʻzlarning shakllari tasodifan teng boʻlib qoladi: baqa – qurbaqa, baqa – suv tegirmoni parrakdan harakat olib, tegirmon toshini aylantiruvchi metall qismi;

2) bir maʼnoli soʻz leksik maʼnoning koʻchishi oqibatida koʻp maʼnoli soʻzga aylanadi, keyinroq bosh maʼno va hosila maʼno oʻrtasidagi bogʻlanish unutilib, bir soʻz negizida ikki boshqa-boshqa leksema paydo boʻladi: kun – quyosh; kun – sutka (kun chiqqandan yana kun chiqqungacha boʻlgan vaqt);

3) boshqa tillardan oʻzlashtirilgan ayrim leksemalar oʻzbek tilidagi u yoki bu leksemaga shaklan teng boʻlib qoladi: toy (fors-tojik) –katta toʻp qilib taxlab yoki bosib bogʻlangan mol va shu tarzidagi mol oʻlchovi;

4) boshqa tillardan oʻzlashtirilgan leksemalar orasida shaklan teng boʻlgan soʻzlarning uchrashi omonimiyaga olib keladi: surat (arabcha) – rasm, surat (arabcha) – urf-odat;

5) leksemalarning yasalishi ham baʼzan omonimlarni keltirib chiqaradi: qoʻnoq – tariq, qoʻnoq (qoʻn+oq) – mehmon kabi.

Dunyo tillaridagi har bir soʻz oʻziga xos xususiyatlarga ega. Ular orasida omonim soʻzlar oʻzining lingvistik jihatlari bilan boshqa soʻzlardan ajralib turadi. Omonimlar maʼno jihatidan har xil, lekin aytilishi va imlosi bir xil boʻlgan soʻzlar sifatida soʻzlarning tasodifiy shakldoshlikka duch kelishi, maʼnolar oʻrtasidagi umumiylikning uzilishi kabi sabab va omillar natijasida yuzaga keluvchi lingvistik hodisadir. Polisemiya esa bir soʻzda tarixan bogʻliq turli maʼnolarning mavjudligi asosida baholanuvchi alohida hodisa boʻlib, terminologiyada ham omonimlik va polisemiklik holatlari kuzatiladi. Masalan, rus tilida “bor” soʻzi “qaragʻay oʻrmoni” va “kimyoviy element” maʼnosidagi omonim soʻzlar, birinchi soʻz slavyan tilidan, ikkinchisi esa forsha “bor” – bor birikmalaridan birining nomi bilan yuzaga kelgan. Ayrim tilshunoslar polisemantik soʻzlarning barcha alohida maʼnolarini omonim deb hisoblaydilar. Bunday holda polisemiya omonimiyaning alohida turi, holati degan qarash yuzaga keladi 1.

Tilshunoslikda omonimiya hodisasining tadqiqi doirasida koʻplab ilmiy tadqiqotlarni kuzatishimiz mumkin. Jumladan, I.S.Tishler, J.Jileron, A.I.Smirniskiy, A.A.Potebnya, L.A.Bulaxovskiy, V.V.Vinogradov, I.V.Arnold, R.A.Budagov, V.V.Broun, O.M.Jilyaeva, O.S.Axmanova, A.A.Reformatskiy, N.A.Abduraxmanov, M.Mirtojiyev, I.Qoʻchqortoyev, A.Hojiyev kabilar mazkur mavzu masalasi tadqiqi borasida muhim ilmiy izlanishlarni amalga oshirganlar.

1Нурматов С. Анализ лексических омонимов числительных в языке хинди // НамДУ илмий ахборотномаси - Научный вестник НамГУ. 2020 йил 7-сон.

Fanlararo terminologik omonimiya shakldoshlikning alohida turi sifatida A.A.Reformatskiy tomonidan qayd etib o‘tilgan. Uning mohiyati shundaki, bir termin muayyan tilning turli terminosistemalariga mansub bo‘lishi mumkin va u fanlararo terminologik omonimiyani tashkil qilad².

Omonimlar muammosiga bag‘ishlangan lingvistik adabiyotlarni o‘rganish uning qiziqarli, ko‘pqirrali mavzu ekanligini ko‘rsatdi. Ammo omonimlarga bag‘ishlangan lingvistik adabiyotlar ko‘pligiga qaramasdan, ushbu hodisaning til va nutqdagi roli to‘g‘risidagi nuqtai nazar hamon mutlaqo qarama-qarshi turishda davom etmoqda.

Omonimiya paydo bo‘lishining tasodifiyligi yoki muntazamligi haqidagi muammo ham murakkab. Ma‘lumki, ko‘pgina omonimlar tasodifiy hollarda paydo bo‘lgan, ammo omonimiya aksariyat tillarda mavjud, bu haqida til hodisalari qonunlari dalolat beradi³.

Polisemiya va omonimiya semasiologiya sohasiga tegishli, tilning turli darajadagi nominativ birliklari ma‘nosi va mazmuni bo‘lgan ob‘ekti hisoblanadi. Polisemiya va omonimiyani farqlash masalasi tilshunoslikning hozirgi taraqqiyot bosqichida ham munozaraligini yo‘qotmagan.

Lingvistik va nolingvistik hodisalarni o‘rganish, bu orqali kasbiy tillarni boyitish va kengaytirish yangi tendensiyalarni o‘rnatishga hamda terminologik birliklarning shakllanishiga keng imkoniyat yaratadi. Shuni ta‘kidlash kerakki, tilshunoslik sohasida polisemiya va omonimiya o‘rtasidagi strukturaviy farqlarni aniqlash muammosi yo‘lidagi izlanishlar ko‘p yillar davomida amalga oshirilib kelinmoqda. Bu borada olimlarning fikrlari turlicha, sababi tadqiqotchilar leksik birliklarning ko‘pma‘noligiga turli nuqtai nazarni ilgari surishadi.

Tadqiqot muammosiga oid nazariy ishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, asosiy terminologik tushunchalarda polisemiya va omonimiyani farqlash muammosi XX asrning 60-80-yillarida I.Arnold (ingliz tili otlarida leksik va grammatik kategoriyalarni hamda ko‘p ma‘noli otlarning semantik tuzilishi o‘rganilgan), O.Axmanova (omonimlar lug‘ati tuzilgan), Yu.Apresyan (semantik maydon strukturasi o‘rganilgan), A.Budagov (polisemiya va omonimiya o‘rtasidagi oraliq aniqlangan), V.Vinogradov (leksik ma‘no turlari aniqlangan), F.Dreyzina (ko‘p ma‘nolilikning sintaktik tahlili o‘tkazilgan), M.Zadorojniy (polisemiya va omonimiya chegaralari tekshirilgan), L.Malaxovskiy (inglizcha omonimlar va omoformalarning lug‘ati tuzilgan), Yu.Maslov (omonimlar tasnifi amalga oshirilgan), L.Novikova (rus tili materiallari asosida polisemiya va omonimiya farqlari ko‘rsatib berilgan), A.Smirniskiy (so‘zning leksik va grammatik nisbati aniqlangan), I.Тышлер (ingliz tili misolida omonimiya muammosi o‘rganilgan) tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Keyingi yillardagi terminologiyaga bag‘ishlangan tadqiqotlarning qiyosiy tahlili

²Реформатский А.А. Термин как член лексической системы / А.А. Реформатский // Проблемы структурной лингвистики. – М.: Наука, 1968. – С. 103-125.

³Гулямова Ш. Жахон тилшунослигида омонимия ходисасининг ўрганилиш тарихи ва босқичлари // Сўз санъати. 1-сон, 3-жилд. – Тошкент, 2020. – Б. 104-109.

asosida quyidagilarni ta'kidlash lozim:

- a) terminologik omonimiya sinonimiya va polisemiya nisbatan kam miqdorda tadqiqot predmeti bo'lgan;
- b) ko'pincha terminologik omonimiya polisemiya taqqoslanib o'rganilgan;
- v) tadqiqotlarning aksariyati bitta soha terminologiyasi asosida amalga oshirilgan: harbiy, neft va gaz, huquqiy va hokazo.

R.Robins tomonidan omonimiya va polisemiyaning farqlash uchun to'rtta mezon taklif qilinadi: formal grammatik, etimologik, semantik muayyanlik (ifodalilik) va moslik.

Shuningdek, S.V.Grinev ham terminologiyada omonimiya va polisemiyaning farqlash mezonlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor beradi. Tadqiqotchi ta'kidlaganidek, "bitta leksik birlik tomonidan bir necha tushuncha ifodalangan holatlar polisemiya va omonimiya sifatida kvalifikatsiya qilinishi mumkin"⁴.

Metonimik jarayon yordamida yangi terminlarni hosil qilishda, har ikki termin – eski va undan hosil bo'lgan yangi termin – ko'pincha turli terminologik tizimlarda qo'llanishi bilan ajratilmaydi, balki bir xil tilda qoladi va ular o'rtasidagi aloqani juda aniq kuzatish mumkin.

Xuddi shunday analogik ko'rinish O.S. Axmanovanning ilmiy ishlarida ham asoslangan⁵. U terminologiyada polisemiya va omonimiyani farqlash tushunchasini aniq ifodalaydi. Uning fikricha "agar ikki atama ifoda jihatidan bir xil bo'lsa-da, mazmun jihatdan farq qilsa, bu hodisa polisemiyaning bir terminologik tizimda va turli terminologiyadagi omonimiya kabi ko'rinadi".

Qayd qilinganidek, omonimiyani vujudga keltiruvchi omillardan biri polisemiya. Bu omil, ayniqsa, terminlar omonimiyasida alohida e'tiborga molik. Chunki terminlar omonimiyasi, asosan, semantik ko'chish orqali yuzaga keladi. Bunda dastlab umumiste'moldagi lug'aviy birlik muayyan sohaga oid terminga ko'chadi va umumiste'moldagi so'z bilan termin omonimiyasini vujudga keltiradi. Bu holat yanada murakkab tus olishi mumkin, ya'ni umumiste'moldagi so'z bir vaqtning o'zida bir necha terminga ko'chishi yoki terminga aylangan so'zdan yana boshqa terminlar semantik usulda hosil bo'lishi ham mumkin. Masalan, anatomiya, zoologiya, botanika, texnika sohalariga oid parva, sichqon(cha), xona kabi terminlar muayyan bir sohadan ikkinchi bir sohaga transterminlashgan lug'aviy birliklar hisoblanadi. Bu hol terminologiyada omonimiyaning vujudga kelishiga olib keladi⁶. Demak, "transterminlashuv – biron soha terminining boshqa bir sohaga butunlay ko'chishi va sohalararo omonimiyaga aylanishidir." Aynan shu kabi holatni relik termin atrofida ham kuzatish mumkin. demak, uni omonim termin sifatida qayd etish mumkin.

4Гринеv С.В. Введение в терминоведение / С.В.Гринеv. – М., 1993.

5Ахманова О.С. Лингвистик терминология / О.С.Ахманова. – М.: Москва унив. Пресс, 1977.

6Исмаилов Ф. Ўзбек тили терминологик тизимларида семантик усулда термин ҳосил бўлиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – 27 б.

Yuqoridagilarga inobatga olgan holda , shunday xulosa qilishimiz mumkinki, ko‘p hollarda terminologiyadagi omonimiya va polisemiya o‘rtasidagi chegara noaniq bolsa-da, bu tushunchalarning xususiyatlarini o‘rganuvchi aniq kontekst, leksik birliklar farqlarini o‘rganish va bu polisemik terminning haqiqiy qiymatini aniqlash mezonlari mavjudligini unutmasligimiz kerak.

Til jonli hodisa sifatida uzluksiz taraqqiy etib borganidek, undagi so‘zlarning ma’nolariga ham yangi ma’nolar qo‘shilib, shuningdek so‘z shakllari ham o‘zgarib, yangilanib boradi. So‘zlardagi ma’no taraqqiyoti tilning tovush tizimi, ma’no uzvlari va morfologik xususiyatlari bilan bog‘liq.

So‘z ma’nolarining ko‘chishi , shuningdek, so‘zlarda ma’no kengayishi va torayishi, so‘zlardagi polisemiya , omonimya kabi hodisalar leksik ma’noning turli qirralaridir. So‘zlardagi shakli mano taraqqiyoti uzliksiz davom etuvchi jarayon bo‘lib,ular vaqt-vaqti bilan turli lingvistik hodisalarni ro‘yobga chiqaradi. So‘zning leksik ma’nosi boshqa leksik ma’no turlaridan farqlash masalasida belgilovchi o‘rin tutadi.O‘zbek terminologiyasida yangi ma’noli so‘zlarning paydo bo‘lishi ana shu leksik ma’no bilan bog‘liq hodisadir.